1. Shaxsning roziligisiz intim tasvirlarni tezkor olib tashlash mexanizmi. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni axborot resurslari egalari va veb-saytlar faoliyatiga oid umumiy majburiyatlarni belgilaydi, shuningdek qonunga xilof axborotdan foydalanishga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi [10]. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun shaxsga doir ma'lumotlarni roziliksiz tarqatmaslik, ishlov berish maqsadiga rioya qilish va muayyan hollarda ma'lumotlarni yo'q qilish majburiyatlarini nazarda tutadi [11]. Biroq, ushbu umumiy normalar shaxsning roziligisiz intim tasvirlarni, jumladan sun'iy intellekt vositasida yaratilgan soxta tasvirlarni tezkor olib tashlashning maxsus protsessual tartibini belgilamaydi.

AQSHda 2025-yil 19-mayda qabul qilingan TAKE IT DOWN qonuni shaxsning roziligisiz haqiqiy yoki sun'iy yaratilgan intim vizual tasvirlarni qasddan tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgiladi. Qonunning platformalar uchun murojaat qilish va kontentni olib tashlash mexanizmiga oid talabi 2026-yil 19-maydan kuchga kirdi. Unga ko'ra, qamrab olingan raqamli platformalar haqiqiy murojaat olinganidan keyin tasvirni hamda ma'lum bo'lgan bir xil nusxalarini 48 soat ichida olib tashlashi shart [12].

Mazkur mexanizmning ahamiyati, jinoiy javobgarlikdan tashqari, aniq ijro zanjiri yaratilganidadir. Unda jabrlanuvchining murojaat qilish imkoniyati, materialni aniq ko'rsatish, platformaning qaror qabul qilish muddati, bir xil nusxalarni topish, murojaat holatini kuzatish va nazorat organiga shikoyat qilish kabi elementlar birlashtirilgan.

Shu bilan birga, bunday mexanizmni milliy qonunchilikka kiritishda yolg'on murojaat, qonuniy jurnalistik yoki sud materiallarining asossiz o'chirilishi, kontent egasining e'tiroz bildirish huquqi va dalillarning yo'qolib ketishi kabi xavflar hisobga olinishi lozim. Shu sababli "o'chirish"dan oldin raqamli dalilning xavfsiz nusxasini saqlash va qaror ustidan mustaqil shikoyat qilish imkoniyati nazarda tutilishi shart.

2. Bolalarning onlayn jinsiy ekspluatatsiyasi to'g'risida majburiy xabar berish. AQSHning REPORT qonuni elektron xizmat ko'rsatuvchilarning NCMEC (National Center for Missing & Exploited Children) CyberTipline tizimiga xabar berish majburiyatini bolani onlayn jinsiy maqsadda jalb qilish va bolalar jinsiy savdosi kabi qilmishlargacha kengaytirdi, xabarni avtomat tarzda saqlash muddatini bir yilga uzaytirdi va platforma egalari tomonidan qasddan xabar bermaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirdi [13]. Natijada, NCMECning hisobotiga ko'ra, bolalar jinsiy savdosi bilan bog'liq CyberTipline xabarlari 2024-yildagi 26 823 tadan 2025-yilda 113 530 taga yetgan, ya'ni 323 foizga oshgan [14]. Mazkur o'sishni jinoyatning shunchaga ko'payishi sifatida bir yoqlama talqin qilish kerak emas. U majburiy xabar berish doirasining kengayishi, platformalarning muvofiqligi va ilgari yashirin qolgan holatlarning rasmiy tizimga kirishi bilan ham izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasining O'RQ-996-son qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-256-son farmoni bilan bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari haqida xabar berish, raqamli hisob va idoralararo hamkorlik uchun umumiy asoslar yaratilgan [4; 5]. Tahlil va natijalar yangi parallel portal tuzishdan ko'ra, mavjud milliy raqamli tizimga bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasiga oid materiallar (CSAM), onlayn ishonchga kirish, jinsiy tovlamachilik va bolalar savdosi

bo‘yicha maxsus modul qo‘shish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Yana bir muhim masala, bizningcha, platformaga tergov funksiyasi yuklanmasligi kerak. U aniqlangan fayl, akkaunt, vaqt, IP manzil, raqamli identifikator va mavjud xavf belgilarini xavfsiz kanal orqali taqdim etadi. Materialni huquqiy kvalifikatsiya qilish, bolaning bevosita xavf ostida ekanini baholash va ishni tegishli organga yo‘naltirish vakolatli davlat organining vazifasi bo‘lib qoladi.

3. Muvofiqlashtirilgan jamoaviy munosabat va jabrlanuvchiga hamrohlik. O‘zbekistonda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar hamda ularning farzandlariga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali ijtimoiy, psixologik va huquqiy xizmatlar ko‘rsatish tartibi shakllangan [15]. Biroq, raqamli zo‘ravonlik holatida jabrlanuvchi ichki ishlar organi, ijtimoiy xizmat, raqamli platforma, advokat va sud bilan alohida-alohida muloqot qilishiga to‘g‘ri kelishi mumkin.

AQSHda VAWA (Violence Against Women Act) modeli politsiya, prokuratura, sud, tibbiyot, boshpana markazlari, jabrlanuvchiga yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar va boshqa subyektlarni muvofiqlashtirilgan jamoaviy munosabatga birlashtiradi [16]. Bu modeldagi “victim advocate” bizning tizimdagi advokat emas; u jabrlanuvchiga jarayonni tushuntiradi, xavfsizlik rejasini tuzishga ko‘maklashadi, idoralar o‘rtasida ishning uzilib qolmasligini nazorat qiladi va zarur xizmatlarga yo‘naltiradi.

Tahlil va natijalar O‘zbekiston uchun yangi parallel kasb yoki organ yaratishdan ko‘ra, yuqori xavfli ishlar bo‘yicha “Inson” markazi tizimida ishni muvofiqlashtiruvchi mutaxassis – keys-menejerni belgilash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. U birinchi murojaatni qabul qilgan organ xodimidan tashkiliy jihatdan mustaqil bo‘lishi, jabrlanuvchining roziligi asosida huquqiy, ijtimoiy, psixologik va raqamli xavfsizlik choralarini bir rejaga birlashtirishi lozim.

4. Himoya orderi ijrosini elektron monitoring orqali ta’minlash. Elektron monitoringda huquqbuzarning harakati GPS qurilmasi orqali kuzatiladi va jabrlanuvchining uyi, ish joyi, ta’lim muassasasi yoki boshqa xavfsiz hududlar atrofida taqiqlangan zona belgilanadi. Nazorat ostidagi shaxs mazkur hududga yaqinlashganda monitoring markaziga va zarur holda jabrlanuvchiga ogohlantirish yuboriladi.

Padgett, Bales va Blomberg Floridada uy qamog‘i va nazorat ostida bo‘lgan 75 661 nafar shaxs ma’lumotlarini tahlil qilib, elektron monitoring ayrim nazorat buzilishlari, yangi jinoyat va nazoratdan qochish ehtimolini kamaytirish bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatgan [17]. Biroq, ushbu tadqiqot faqat oilaviy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan amalga oshirilmagan. Shu bois uning natijasini oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq aniq foizli samara sifatida ko‘rsatish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Elektron monitoring bo‘yicha sharhlar natijalarning huquqbuzar toifasi, nazorat sifati, qurilmaning ishonchliligi, signalga javob tezligi va boshqalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [18]. Demak, GPS qurilmasi mustaqil himoya vositasi emas, balki xavfni erta aniqlash va tezkor harakat qilish tizimining texnik qismi hisoblanadi.

O‘zbekistonda himoya orderi doirasida jabrlanuvchi bilan aloqani va muayyan joylarga yaqinlashishni cheklash imkoniyati mavjud [2]. Elektron monitoring ushbu mavjud huquqiy cheklovni texnik ta’minlash vositasi sifatida, faqat sud qarori, tasdiqlangan xavfni baholash, aniq muddat va ma’lumotlar xavfsizligi kafolatlari bilan qo‘llanilishi mumkin.

5. Faol guvoh aralashuvi modeli. AQSHda Green Dot dasturida zo‘ravonlikning oldini olish faqat jabrlanuvchi va huquqbuzar o‘rtasidagi munosabat sifatida emas, balki atrofdagi uchinchi shaxslarning xavfsiz aralashuvi orqali ijtimoiy normalarni o‘zgartirish jarayoni sifatida keltiriladi. Dasturda bevosita aralashish, mas’ul shaxsni jalb qilish, vaziyatni chalg‘itish va hodisadan keyin yordam berish usullari o‘rgatiladi.

Coker boshchiligidagi hammualliflar o‘tkazgan tadqiqotda 2 504 nafar talaba ishtirok etgan. Green Dot ta’siriga duch kelgan talabalar faol guvoh harakatlarini ko‘proq qayd etgan va zo‘ravonlikni oqlovchi qarashlarni kamroq qabul qilgan [19].

Keyingi 26 ta maktabda besh yil davomida o‘tkazilgan klaster randomizatsiyalangan tadqiqot ham faol guvoh aralashuvining munosabatlar doirasidagi zo‘ravonlikni kamaytirish imkoniyatini kuchliroq asosladi [20; 21].

Bizningcha, O‘zbekistonda mazkur dasturni aynan nomi va shakli bilan ko‘chirish emas, balki uning tamoyillarini mahalla va oliy ta’lim jarayoniga moslashtirish lozim. Milliy modelda ustuvor yo‘nalishlar sifatida oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirokida ijtimoiy tarmoqlardagi kamsitish, intim tasvir talab qilish, soxta akkaunt orqali ta’qib qilish, majburan uchrashuvga chaqirish, jabrlanuvchini ayblash va vakolatli shaxsga xabar berish holatlarini qamrab olishi mumkin.

1. Xorijiy tajribani ko‘chirish emas, funksional moslashtirish zarurati. AQSH mexanizmlarining har biri alohida muammoni hal qilishga qaratilgan. TAKE IT DOWN Act kontentni platformadan tezkor olib tashlashga, REPORT Act platforma egalarining vakolatli organlarga tezkor xabar berish majburiyatiga, VAWA idoralararo hamkorlikka, GPS xavfni texnik nazorat qilishga, Green Dot esa ijtimoiy normalarni o‘zgartirishga xizmat qiladi. Ularga bir-birining o‘rnini bosuvchi choralar emas, balki turli bosqichlarda ishlaydigan o‘zaro bog‘liq vositalar sifatida qarash kerak.

Mamlakatimiz olimlari ham o‘z tadqiqotlarida yuqoridagi kabi kompleks yondashuvga zarurat mavjudligini tasdiqlaydilar.

Jumladan, Z.Ibroximova oilaviy zo‘ravonlik uchun javobgarlikni takomillashtirishda himoya orderi, jabrlanuvchilar doirasi va zo‘ravonlik usullarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish zarur, degan fikrni ilgari suradi [22]. V.T. Turabov zo‘ravonlik holatlarida dalillarni to‘plash, jabrlanuvchi bilan muloqot qilish ko‘nikmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini kuchaytirishni muhim deb hisoblaydi [23]. O.A. Xamidov milliy qonunchilikdagi himoya orderi va gender tengligi mexanizmlarini kompleks ravishda qo‘llash kerakligiga urg‘u beradi [24].

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy normani so‘zma-so‘z ko‘chirish milliy tizimda huquqiy kolliziya, funksiyalarning takrorlanishi yoki ijro mexanizmining ishlamasligiga olib kelishi mumkin. Funksional moslashtirish esa avval milliy tizimda mavjud institutni aniqlanib, xorijiy tajriba qaysi yetishmayotgan elementni to‘ldirishini belgilashdan boshlanadi.

2. O‘zbekiston uchun “tezkor himoya” modelining mohiyati. Tadqiqot natijalari asosida “tezkor himoya” modeli taklif etiladi. Model jabrlanuvchining birinchi murojaatidan boshlab platformadan kontentni, ya’ni intim tasvirni olib tashlash, dalillarni saqlash, xavfni baholash, idoralararo yordam va natijani baholashgacha bo‘lgan uzluksiz zanjirni qamrab oladi. Bunda mazkur jarayon quyidagicha tashkil etilishi mumkin.

Birinchi yo‘nalish – huquqiy aniqlik. Jinoyat qonunchiligida shaxsning roziligisiz haqiqiy yoki sun’iy yaratilgan intim tasvirni tarqatish, boshqa shaxsga berish yoxud tarqatish bilan tahdid qilganlik uchun javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq. Qonunchilikda tasvirni yaratish, saqlash va tarqatishga roziliknig har biri alohida ekanligi, bir shaxsga yuborilgan materialni boshqalarga berishga roziliknі anglatmasligi mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchi yo‘nalish – platformaga tezkor murojaat. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunda qamrab olingan raqamli platformalar uchun elektron murojaat qilish shakli, materialdan foydalanishni vaqtincha cheklash tartibi, 48 soat ichida qaror qabul qilish, ma’lum bir xil nusxalarni aniqlash, raqamli dalilni saqlash, murojaatchiga natija haqida xabar berish va qaror ustidan shikoyat qilish tartibi belgilanishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish – bolalarni onlayn himoya qilish. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-996-son qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-256-son farmoni doirasida shakllanayotgan raqamli tizimga platforma egalari tomonidan vakolatli idoralarga CSAM, jinsiy tovlamachilik va bolalar savdosi to‘g‘risida xabar berishga oid modul qo‘shilishi lozim. Xabarga kiritiladigan texnik ma’lumotlar, taqdim etish muddati, dalilni saqlash va shoshilinch xavfni saralash mezonlari alohida nizom bilan belgilanishi kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish – yuqori xavfni boshqarish. Himoya orderi talablarini takroran buzgan, o‘ldirish yoki og‘ir shikast yetkazish bilan tahdid qilgan, qurol bilan qo‘rqitish yoxud jabrlanuvchini uzoq vaqt ta’qib qilgan shaxslarga nisbatan sud qarori bilan muayyan muddatga elektron monitoring piloti o‘tkazilishi mumkin. Jabrlanuvchining geolokatsiyasi maxfiy saqlanishi, signalga javob berish vaqti va texnik xatolarni ko‘rib chiqish tartibi oldindan belgilanishi shart.

Beshinchi yo‘nalish – jabrlanuvchiga hamrohlik. “Inson” markazida yuqori xavfga ega zo‘ravonlik holatlari uchun keys-menejer belgilanib, u ichki ishlar organi, tibbiyot, psixologik xizmat, advokat va raqamli platforma bilan aloqani muvofiqlashtirishi kerak. Birinchi murojaatni qabul qilish protokoli xodimning jabrlanuvchini ayblamasligi, shoshilinch xavfni baholashi, skrinshot, havola, akkaunt identifikatori va boshqa elektron dalillarni saqlashni tushuntirishini nazarda tutishi lozim.

Oltinchi yo‘nalish – profilaktik muhit. Ta’lim muassasalari va mahallalar uchun faol guvoh aralashuvi moduli ishlab chiqilib, u raqamli ta’qib, ijtimoiy tarmoqlardagi kamsitish, intim tasvir talab qilish kabi holatlarga mos ssenariylarni qamrab olishi kerak.

Yettinchi yo‘nalish – ma’lumot va mustaqil baholash. Mavjud elektron hisob tizimlariga doksing, onlayn ta’qib, shaxsning roziligisiz intim tasvir tarqatish, sun’iy intellekt asosida yaratilgan intim tasvir, jinsiy tovlamachilik va raqamli majburiy nazorat uchun alohida klassifikatorlar kiritilishi lozim. Har bir chora boshlanishidan avval bazaviy ko‘rsatkichlar belgilanib, keyin pilot va qiyosiy hududlarda takroriy zo‘ravonlik, javob vaqti, himoya orderi buzilishi, jabrlanuvchining xavfsizlik hissi va davlat organlariga nisbatan ishonchi bo‘yicha “oldin va keyin” metodi bo‘yicha baholash o‘tkazilishi kerak.

Tadqiqot AQSH tajribasida raqamli va oilaviy zo‘ravonlikka qarshi yagona universal vosita mavjud emasligini, samarali yechim huquqiy javobgarlikni takomillashtirish, platformalar uchun muayyan majburiyatlarni yuklash, idoralararo hamkorlikni to‘g‘ri tashkil etish, xavfni texnik nazorat qilish, jamoatchilik profilaktikasi va mustaqil baholashning birgalikda ishlashiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonda xotin-qizlar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish, himoya orderi, raqamli hisob, shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha zarur bazaviy institutlar mavjud. Shu sababli asosiy vazifa xorijiy modellarni ko‘chirish emas, balki mavjud institutlarga yetishmayotgan protsessual, texnologik va baholash elementlarini qo‘shishdan iborat.

Yuqoridagilar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) jinoyat qonunchiligida shaxsning roziligisiz haqiqiy yoki sun’iy intellekt vositasida yaratilgan intim tasvirni tarqatish, boshqa shaxsga berish va tarqatish bilan tahdid qilish uchun javobgarlik belgilash;

2) qonunchilikda tasvirni yaratish, saqlash va tarqatishga rozilikning har biri mustaqil ekanligi hamda muayyan shaxsga yuborish uni uchinchi shaxslarga tarqatishga rozilikni anglatmasligi mustahkamlanishi;

3) “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunda raqamli platformalarga murojaat qilish mexanizmi, 48 soat ichida tasvirni o‘chirish yoki o‘chirmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish, ma’lum bir xil nusxalarni olib tashlash, dalillarni xavfsiz saqlash va shikoyat qilish tartibini belgilash;

4) bolalarni himoya qilish bo‘yicha mavjud raqamli tizimda CSAM, jinsiy tovlamachilik va bolalar savdosi haqida platformalarning majburiy xabar berish modulini yaratish;

5) himoya orderining huquqbuzarning jabrlanuvchiga yaqinlashishini taqiqlovchi talabini sud qarori asosida elektron monitoring orqali nazorat qilish bo‘yicha pilot loyiha o‘tkazish;

6) “Inson” markazlarida tashkiliy jihatdan mustaqil keys-menejer lavozimini joriy etish va “Raqamli tazyiq haqida birinchi murojaatni qabul qilish protokoli”ni ishlab chiqish;

7) oliy ta’lim muassasalari, texnikumlar va mahallalar uchun milliy muayyan ssenariylarga asoslangan zo‘ravonlik holatlarida faol guvoh aralashuvi profilaktik dasturini sinovdan o‘tkazish;

Faol guvoh aralashuvi *– zo‘ravonlik yoki tazyiq holatini kuzatgan shaxsning jabrlanuvchi xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarlik oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan harakatlarini anglatadi. U, odatda, quyidagi to‘rt usulda amalga oshiriladi:*

1. Bevosita aralashish – vaziyat xavfsiz bo‘lgan taqdirda huquqbuzarga harakatini to‘xtatishni aytish, jabrlanuvchidan yordamga muhtoj yoki muhtoj emasligini so‘rash yoxud tazyiqqa nisbatan ochiq munosabat bildirish.

2. Boshqa shaxsni jalb qilish – guvohning o‘zi aralasha olmagan holda o‘qituvchi, qo‘riqchi, psixolog, rahbar, ichki ishlar xodimi yoki boshqa vakolatli shaxsga xabar berishi.

3. Chalg‘itish – huquqbuzar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilikka kirishmasdan, suhbat mavzusini o‘zgartirish, jabrlanuvchini boshqa bahona bilan vaziyatdan olib chiqish yoki hodisaning davom etishiga to‘sqinlik qilish.

4. Keyingi yordam – hodisa vaqtida aralashish imkoni bo‘lmagan taqdirda, keyinchalik jabrlanuvchini qo‘llab-quvvatlash, dalillarni saqlashga yordam berish, murojaat qilish tartibini tushuntirish va tegishli xizmatlarga hamrohlik qilish.

Mazkur usullar guvohdan xavfli to‘qnashuvga kirishishni emas, vaziyatga mos va xavfsiz chorani tanlashni talab qiladi.

8) yagona elektron hisob tizimiga raqamli zo‘ravonlikning alohida klassifikatorlarini kiritish hamda har ikki yoki uch yilda milliy reprezentativ viktimologik so‘rov o‘tkazish.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan model qonun matnining mukammalligini emas, jabrlanuvchining birinchi murojaatidan boshlab uning xavfsizligi to‘liq ta’minlanguniga qadar tizimning qanchalik tez, muvofiqlashgan va natijador ishlashini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145. (murojaat qilingan sana: 13.07.2026-yil).
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son qonuni. https://lex.uz/docs/4494709. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 13.07.2026-yil).
3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son qonuni. https://lex.uz/docs/6430272. (murojaat qilingan sana: 14.07.2026-yil).
4. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son qonuni. https://lex.uz/docs/7219502. (murojaat qilingan sana: 15.07.2026-yil).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi “2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-256-son farmoni. https://lex.uz/docs/7938806. (murojaat qilingan sana: 15.07.2026-yil).
6. UN Women. Accelerating efforts to tackle online and technology-facilitated violence against women and girls. – New York, 2022. https://www.unwomen. org/en/digital-library/publications/2022/10/accelerating-efforts-to-tackle-online-and-technology-facilitated-violence-against-women-and-girls (murojaat qilingan sana: 15.07.2026-yil).
7. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi: Yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2020. – 72 b. https://tsul.uz/files/avtoreferat/niyozova_s.pdf. (murojaat qilingan sana: 15.07.2026-yil).
8. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b.
9. Olimov A.A. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2020. – 102 b. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.07.2026-yil).
10. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560-II-son qonuni. https://lex.uz/docs/83472. (murojaat qilingan sana: 21.07.2026-yil).
11. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son qonuni. https://lex.uz/docs/4396419. (murojaat qilingan sana: 22.07.2026-yil).
12. Tools to Address Known Exploitation by Immobilizing Technological Deepfakes on Websites and Networks Act (TAKE IT DOWN Act), Public Law 119–12, 19 May 2025; Federal Trade Commission. Complying With the Take It Down Act. https://www.ftc.gov/business-guidance/resources/complying-take-it-down-act. (murojaat qilingan sana: 22.07.2026-yil).
13. Revising Existing Procedures On Reporting via Technology Act (REPORT Act), Public Law 118–59, 7 May 2024. https://www.govinfo.gov/app/details/PLAW-118publ59. (murojaat qilingan sana: 22.07.2026-y).
14. National Center for Missing & Exploited Children. CyberTipline Data, 2025. https://ncmec.org/cybertiplinedata. (murojaat qilingan sana: 23.07.2026-yil).

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 354-son qarori. https://lex.uz/docs /6982043. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
16. U.S. Department of Justice, Office on Violence Against Women. Office on Violence Against Women: Mission and coordinated community response. https://www.justice.gov/ovw. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026 yil).
17. Padgett K.G., Bales W.D., Blomberg T.G. Under Surveillance: An Empirical Test of the Effectiveness and Consequences of Electronic Monitoring // Criminology & Public Policy. – 2006. – Vol. 5, No. 1. – P. 61–91. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
18. Belur J., Thornton A., Tompson L., Manning M., Sidebottom A., Bowers K. A systematic review of the effectiveness of the electronic monitoring of offenders // Journal of Criminal Justice. – 2020. – Vol. 68. – Article 101686. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
19. Coker A.L., Cook-Craig P.G., Williams C.M., Fisher B.S., Clear E.R., Garcia L.S., Hegge L.M. Evaluation of Green Dot: An active bystander intervention to reduce sexual violence on college campuses // Violence Against Women. – 2011. – Vol. 17, No. 6. – P. 777–796. DOI: 10.1177/1077801211410264. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
20. Coker A.L., Bush H.M., Fisher B.S., Swan S.C., Williams C.M., Clear E.R., DeGue S. Multi-College Bystander Intervention Evaluation for Violence Prevention // American Journal of Preventive Medicine. – 2016. – Vol. 50, No. 3. – P. 295–302. (lektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
21. Coker A.L., Bush H.M., Cook-Craig P.G., DeGue S.A., Clear E.R., Brancato C.J., Fisher B.S., Recktenwald E.A. RCT Testing Bystander Effectiveness to Reduce Violence // American Journal of Preventive Medicine. – 2017. – Vol. 52, No. 5. – P. 566–578. DOI: 10.1016/j.amepre.2017.01.020. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
22. Ibroximova Z. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik va uni takomillashtirishning ayrim masalalari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2024. – J. 5. – № 4. – B. 155–160. DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss4-pp155-160. (murojaat qilingan sana: 24.07.2026-yil).
23. Turabov V.T. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash – dolzarb muammolardan biri sifatida // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Vol. 2, No. 18. – B. 110–114. DOI: 10.5281/zenodo.8394514. (murojaat qilingan sana: 25.07.2026-yil).
24. Xamidov O.A. O‘zbekistonda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning huquqiy holati // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2023. – Vol. 3. – No.8. – B. 38–42. DOI: 10.5281/zenodo.8227731. (murojaat qilingan sana: 25.07.2026-yil).



ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ (INTERNET OF THINGS): КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ, АРХИТЕКТУРНЫЕ МОДЕЛИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ



ГАЛЛЯМОВ
Марсель Габтулхаевич
Правоохранительная академия Республики Узбекистан,
НИИ цифровой криминалистики,
старший прокурор-криминалист

Аннотация. *Настоящая статья посвящена комплексному анализу концепции Интернета вещей (IoT) как одного из ключевых направлений цифровой трансформации современного общества. В работе рассматриваются теоретические основы IoT, его архитектурные модели, сферы применения, а также социальные, технологические и правовые вызовы, связанные с масштабным внедрением данной технологии. На основе проведённого анализа установлено, что IoT представляет собой не просто технологическую платформу, но и системообразующий фактор интеграции физической, цифровой и виртуальной среды. Выявлены ключевые проблемы стандартизации, безопасности данных и социальной адаптации, требующие системного решения на уровне научного сообщества и государственных институтов.*
Ключевые слова: *Интернет вещей, IoT, цифровая трансформация, умные устройства, архитектура IoT, безопасность данных, стандартизация, промышленная автоматизация, умный город.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy jamiyatning raqamli transformatsiyasidagi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida Narsalar interneti (IoT) konsepsiyasini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada IoT ning nazariy asoslari, uning arxitektura modellari, qo'llanilish sohalari, shuningdek ushbu texnologiyani keng miqyosda joriy etish bilan bog'liq ijtimoiy, texnologik va huquqiy muammolar ko'rib chiqiladi. O'tkazilgan tahlil asosida IoT nafaqat texnologik platforma, balki fizik, raqamli va virtual muhitni integratsiya qiluvchi tizim hosil etuvchi omil ekanligi aniqlandi. Standartlashtirish, ma'lumotlar xavfsizligi va ijtimoiy moslashuv sohasidagi asosiy muammolar aniqlanib, ular ilmiy hamjamiyat va davlat institutlari darajasida tizimli yechimni talab etadi.*
Kalit so'zlar: *Narsalar interneti, IoT, raqamli transformatsiya, aqlli qurilmalar, IoT arxitekturasi, ma'lumotlar xavfsizligi, standartlashtirish, sanoat avtomatizatsiyasi, aqlli shahar.*

Abstract. *This article is devoted to a comprehensive analysis of the Internet of Things (IoT) concept as one of the key directions of digital transformation in modern society. The paper examines the theoretical foundations of IoT, its architectural models, areas of application, as well as the social, technological and legal challenges associated with the large-scale implementation of this technology. Based on the analysis conducted, it has been established that IoT represents not merely a technological platform, but also a system-forming factor in the integration of physical, digital and virtual environments. Key problems of standardization, data security and social adaptation have been identified, requiring systemic solutions at the level of the scientific community and state institutions.*
Keywords: *Internet of Things, IoT, digital transformation, smart devices, IoT architecture, data security, standardization, industrial automation, smart city.*

Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий в XXI в. обусловило формирование принципиально новой технологической парадигмы, в рамках которой физические объекты окружающего мира приобретают способность взаимодействовать между собой и с человеком посредством глобальных сетей передачи данных. Данная концепция, получившая название «Интернет вещей» (Internet of Things, IoT), сегодня является одним из наиболее динамично развивающихся направлений в сфере

информационных технологий и цифровой экономики. Термин «Internet of Things» был введён в научный оборот Кевином Эштоном в 1999 году в контексте разработок в области радиочастотной идентификации (RFID), однако широкое концептуальное и практическое распространение данная идея получила значительно позже с развитием беспроводных сенсорных сетей, облачных вычислений и технологий обработки больших данных [12]. По своей сути IoT представляет собой экосистему взаимосвязанных физических устройств, транспортных средств, бытовых приборов и иных объектов, оснащённых встроенными датчиками, программным обеспечением и средствами связи, обеспечивающими сбор и обмен данными в режиме реального времени [12].

Масштаб данного явления сложно переоценить: по прогнозам исследовательских организаций, количество подключённых к сети устройств в мире в ближайшее десятилетие исчислялось и будет исчисляться десятками миллиардов единиц, что кардинально меняет облик современного производства, городской среды, медицины, сельского хозяйства и повседневной жизни человека. В условиях активной цифровизации экономики Республики Узбекистан, осуществляемой в рамках стратегических программ развития цифровой инфраструктуры, IoT приобретает особое значение как инструмент повышения эффективности производственных процессов, оптимизации ресурсопотребления и создания «умных» систем управления [1]. Именно поэтому научное осмысление концептуальных основ, архитектурных моделей и социально-технологических последствий внедрения Интернета вещей представляется актуальной и практически значимой задачей. Целью настоящей статьи является систематизация и критический анализ существующих подходов к определению, классификации и оценке IoT-технологий в контексте глобальных тенденций цифровой трансформации.

Методологическую основу настоящего исследования составляет системный анализ научных публикаций, посвящённых теоретическим и прикладным аспектам Интернета вещей. Среди фундаментальных зарубежных работ особое место занимает исследование Бандьопадхьяя и Сена, рассматривающее IoT как совокупность технологий, обеспечивающих уникальную идентификацию и связь физических объектов, и систематизирующее вызовы стандартизации в данной области [9]. Кумар, Тивари и Зымблер в своём обзорном исследовании указывают на революционный характер IoT для будущего технологического развития и классифицируют ключевые области применения данной технологии, выделяя умные города, здравоохранение, логистику и промышленность в качестве приоритетных сфер [7]. Зигфрид и Амангельдиев анализируют концептуальный аппарат IoT и выявляют основные практические барьеры для его масштабного внедрения, среди которых особую роль играют проблемы энергопотребления встроенных устройств, ограниченности вычислительных ресурсов и гетерогенности используемых стандартов [8]. Ходадади, Дастджерди и Байя рассматривают IoT как интегрированную архитектурную систему, охватывающую уровни восприятия, передачи и обработки данных, и формируют его обобщённую понятийную модель [13]. Элхудр, Шахрестани и Чёнг акцентируют внимание на проблемах интероперабельности, управления и безопасности, которые приобретают критическое значение по мере роста числа подключённых устройств и расширения спектра обрабатываемых персональных данных [11].

В русскоязычной научной литературе значительный вклад в разработку архитектурной проблематики IoT внесли Росляков и Кирьяков, предложившие систематизированный обзор эталонных архитектурных моделей и обосновавшие необходимость их унификации на международном уровне [6]. Юдина рассматривает социальное измерение IoT, указывая на необходимость социальной экспертизы внедряемых технологий с учётом их воздействия на приватность граждан, трудовые отношения и характер социальных взаимодействий [5]. Ходенкова концептуализирует Интернет вещей как системный фактор интеграции физической, цифровой и виртуальной среды обитания человека, подчёркивая его онтологическое значение для трансформации пространства жизнедеятельности [4].

В узбекоязычном и отечественном научном дискурсе А. Кудратов исследует IoT как инструмент оптимизации сельскохозяйственного производства и приходит к выводу о значительном потенциале данной технологии для повышения урожайности и рационального использования водных ресурсов в условиях Центральной Азии [1]. Карабаев, Маматкулов и Якубов систематизируют технологические компоненты IoT и анализируют их применение в производственных процессах, указывая на необходимость интеграции IoT-решений с существующими автоматизированными системами управления [2]. Сабирова рассматривает роль IoT в процессах цифровой трансформации отечественных предприятий с позиций маркетинга и управления, выявляя прямую зависимость конкурентоспособности организаций от степени их технологической готовности к работе в условиях подключённой экономики [3]. Наконец, в исследовании по безопасности баз данных рассматриваются механизмы защиты информационных систем, в том числе применительно к IoT-инфраструктуре, что представляет особую ценность в контексте угроз несанкционированного доступа к данным, генерируемым подключёнными устройствами [10]. Проведённый анализ литературы позволяет констатировать, что современное исследовательское поле IoT характеризуется как активным технологическим поиском, так и нарастающим вниманием к социальным, правовым и экономическим аспектам данного явления.

На основе проведённого анализа научной литературы представляется возможным сформулировать ряд ключевых выводов относительно природы, архитектуры и перспектив Интернета вещей. Прежде всего, необходимо подчеркнуть, что IoT не является монолитной технологией: это сложная многоуровневая экосистема, объединяющая аппаратные компоненты (сенсоры, актуаторы, микроконтроллеры), программное обеспечение промежуточного слоя, коммуникационные протоколы и прикладные платформы [13]. Архитектурные исследования, проведённые Росляковым и Кирьяковым, убедительно демонстрируют, что на сегодняшний день в научном сообществе и в индустрии не выработано единой эталонной архитектурной модели IoT [6]. Существуют различные подходы трёхуровневые, пятиуровневые и туманные вычислительные архитектуры (fog computing), каждый из которых имеет свои преимущества и ограничения в зависимости от конкретного контекста применения. Данное разнообразие является одновременно и свидетельством динамизма технологического развития, и источником серьёзных проблем для практической реализации IoT-проектов.

Сфера применения IoT охватывает сегодня практически все отрасли человеческой деятельности. В сельском хозяйстве, как показывает Кудратов, внедрение IoT-решений позволяет осуществлять точное земледелие мониторинг влажности почвы, автоматическое управление ирригационными системами, дистанционный контроль состояния посевов что ведёт к существенному снижению ресурсных затрат при сохранении или повышении уровня урожайности [1]. В промышленности IoT формирует основу четвёртой промышленной революции (Industry 4.0), обеспечивая непрерывный мониторинг производственного оборудования, предиктивное техническое обслуживание и интеграцию производственных цепочек в единое информационное пространство [2]. В медицине IoT открывает возможности для удалённого мониторинга пациентов, автоматизированного сбора и анализа физиологических данных, управления медикаментозным лечением и создания «умных» больниц. В концепции умного города IoT обеспечивает интеграцию систем освещения, транспорта, водоснабжения, управления отходами и общественной безопасности в единую управляемую платформу [7]. Cabirova, рассматривая IoT через призму маркетинга и бизнес-трансформации, убедительно показывает, что компании, инвестирующие в IoT-инфраструктуру, получают значимые конкурентные преимущества благодаря способности принимать управленческие решения на основе данных в режиме реального времени [3].

Вместе с тем масштабное внедрение IoT порождает комплекс серьёзных вызовов, игнорирование которых может дискредитировать саму идею «связанного мира». Проблема безопасности данных занимает центральное место в данном ряду. Элхудр и соавторы убедительно обосновывают, что рост числа подключённых устройств экспоненциально расширяет поверхность атаки для злоумышленников, тогда как ограниченность вычислительных ресурсов большинства IoT-устройств существенно затрудняет применение полноценных криптографических механизмов защиты [11]. Исследование по безопасности баз данных дополнительно акцентирует внимание на уязвимостях, возникающих при хранении и обработке массивов данных, генерируемых IoT-устройствами [10]. Социальное измерение проблематики IoT исследуется Юдиной, которая обращает внимание на то, что повсеместное распространение «умных» устройств, способных непрерывно собирать данные о поведении, перемещении и физиологическом состоянии людей, создаёт принципиально новые риски для приватности и информационного суверенитета личности [5].

Ходенкова, в свою очередь, рассматривает более глубокое измерение данной проблемы: IoT не просто собирает данные о человеке, но и трансформирует само пространство его существования, стирая границы между физическим и цифровым мирами, что влечёт за собой необходимость переосмысления фундаментальных правовых и этических категорий [4]. Отдельного внимания заслуживает проблема стандартизации. Бандьопадхьяй и Сен в своей ранней, но не утратившей актуальности работе указывают на отсутствие универсальных стандартов идентификации, коммуникационных протоколов и форматов данных в экосистеме IoT как на ключевое препятствие для его гармоничного развития [9]. Данная проблема актуальна и для Узбекистана, где нормативно-правовая база в сфере IoT находится в стадии формирования. Зигфрид и Амангельдиев в своём исследовании, примечательном уже самим фактом участия исследователя с центральноазиатской фамилией в международной публикации, фиксируют, что проблема фрагментации стандартов и протоколов остаётся одним из наиболее острых вызовов для глобального рынка IoT [8].


Анализируя перспективы развития IoT, необходимо отметить конвергентный характер данной технологии: её дальнейшее развитие органично связано с прогрессом в области искусственного интеллекта, больших данных, 5G/6G-коммуникаций и квантовых вычислений. Именно синергия этих технологий создаёт основу для следующего поколения IoT-систем, способных не просто собирать и передавать данные, но и осуществлять их интеллектуальную обработку непосредственно на уровне устройств (edge computing) [7]. Для Узбекистана и в целом для стран Центральной Азии развитие IoT-технологий является стратегическим приоритетом, который должен реализовываться с учётом как технологических возможностей, так и специфики правовой среды, уровня цифровой грамотности населения и особенностей национальной инфраструктуры.

Проведённое исследование позволяет сформулировать ряд обобщающих выводов. Интернет вещей представляет собой комплексную технологическую парадигму, кардинально трансформирующую взаимодействие человека с окружающей средой путём наделения физических объектов способностью к коммуникации и обмену данными. Анализ научной литературы демонстрирует, что IoT обладает значительным потенциалом для оптимизации производственных процессов, повышения качества жизни и создания новых форм социально-экономической организации. Вместе с тем масштабное внедрение данной технологии сопряжено с серьёзными вызовами в сфере безопасности данных, стандартизации протоколов, защиты приватности и обеспечения социальной справедливости в условиях цифрового неравенства. Архитектурное разнообразие IoT-решений, с одной стороны, обеспечивает гибкость их применения, с другой затрудняет системную интеграцию и создаёт предпосылки для появления изолированных технологических «островов». Для преодоления данных противоречий необходима координированная

работа научного сообщества, государственных органов и бизнес-структур по выработке единых стандартов, правовых норм и механизмов контроля за IoT-инфраструктурой. Перспективным направлением дальнейших исследований представляется изучение специфики адаптации IoT-решений к условиям развивающихся экономик, в частности к реалиям цифровой трансформации Узбекистана, а также разработка методических основ социальной экспертизы IoT-проектов с целью минимизации рисков их негативного воздействия на права и свободы граждан.

Использованные источники

1. Kudratov A. Internet of Things as a Tool for Optimizing Processes in Agriculture // Modern Science and Research. – 2023. – № 6. – P. 306–311. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21273
2. Karabayev I.T., Mamatkulov T.Ch., Yakubov B.M. IoT (Internet of Things) texnologiyalari va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – № 6. – P. 74–79. – DOI: 10.5281/zenodo.15635049. – URL: https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/699
3. Sabirova D.A. Internet of Things (IoT) texnologiyalarining raqamli transformatsiya jarayonlaridagi ahamiyati // Marketing Journal. – 2026. – Vol. 5. – P. 102–108. – URL: https://marketingjournal.uz/index.php/mj/article/view/1006
4. Ходенкова Е.В. Internet of Things as a Systemic Factor of Integration of Physical, Digital and Virtual Human Environment // Манускрипт. – 2018. – № 10. – С. 84–89. – DOI: 10.30853/manuscript.2018-10.18. – URL: https://www.gramota.net/en/article/mns20180918/fulltext
5. Юдина М.В. Интернет вещей: проблемы социальной экспертизы // Цифровая социология. – 2017. – Т. 5, № 2. – С. 50–67. – DOI: 10.21453/2311-3065-2017-5-2-50-67. –URL:https://www.researchgate.net/publication/332901506
6. Росляков А.В., Кирьяков А.А. Интернет вещей: обзор эталонных архитектурных моделей // Инфокоммуникационные технологии. – 2021. – Т. 19, № 4. – С. 382–395. –DOI:10.18469/ikt.2021.19.4.01. – URL: https://journals.eco-vector.com/2073-3909/article/view/112232
7. Kumar S., Tiwari P., Zymbler M. Internet of Things is a Revolutionary Approach for Future Technology Enhancement: A Review // Journal of Big Data. – 2019. – Vol. 6. – Article 111. – P. 1–21. – DOI: 10.1186/s40537-019-0268-2. – URL: https://journalofbigdata.springeropen.com/articles/10.1186/s40537-019-0268-2
8. Siegfried P., Amangeldiyev N. The Concepts, Applications, and Challenges of the Internet of Things // IT Journal Research and Development. – 2022. – Vol. 6, No. 2. – P. 95–108. – DOI: 10.25299/itjrd.2022.9110. – URL: https://journal.uir.ac.id/index.php/ITJRD/article/view/9110
9. Bandyopadhyay D., Sen J. Internet of Things: Applications and Challenges in Technology and Standardization // Wireless Personal Communications. – 2011. – Vol. 58, No. 1. – P. 49–69. – URL: https://arxiv.org/abs/1105.1693
10. Маълумотлар базасида хавфсизлик ва химоя механизмлари // Замонавий илм-фан ва тадқиқотлар: муаммо ва ечимлар. – 2025. – Т. 2, № 5. – С. 134–136. – URL: https://innoworld.net/index.php/ziftmy/article/view/1524
11. Elkhodr M., Shahrestani S., Cheung H. The Internet of Things: New Interoperability, Management and Security Challenges // International Journal of Network Security & Its Applications. – 2016. – Vol. 8, No. 2. – P. 85–102. – URL: https://arxiv.org/abs/1604.04824
12. Khodadadi F., Dastjerdi A.V., Buyya R. Internet of Things: An Overview // Internet of Things: Principles and Paradigms. – Amsterdam: Elsevier, 2017. – P. 3–27. – URL: https://arxiv.org/abs/1703.06409



KIBERFIRIBGARLIK: ZAMONAVIY SHAKLLARI, IJTIMOIY-MUHANDISLIK MEXANIZMLARI VA UNGA QARSHI KURASHISHNING KRIMINOLOGIK CHORALARI



XAMIDOV
Asilbek Alisher o‘g‘li
Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida kiberfiribgarlikning zamonaviy kriminologik xususiyatlari, uning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy oqibatlari hamda transmilliy jinoyatchilik tizimidagi o'rni kompleks tahlil qilinadi. Kiberfiribgarlikning an’anaviy firibgarlikdan farqli jihatlari, uning anonimlik, masofaviylik, transchegaraviylik, yuqori latentlik, masshtablilik va raqamli izlarga asoslangan xususiyatlari yoritiladi.*
Kalit so'zlar: *kiberfiribgarlik, kiberjinoyatchilik, raqamli jinoyatchilik, ijtimoiy muhandislik, fishing, spear-phishing, smishing, vishing, Business Email Compromise, karding, kriptofiribgarlik, sun’iy intellekt, deepfake, QR-kod firibgarligi, raqamli kriminalistika, kiberxavfsizlik, moliyaviy firibgarlik, transmilliy jinoyatchilik, raqamli gigiyena, kiberprofilaktika.*

Аннотация. *В статье проводится комплексный анализ современных криминологических особенностей кибермошенничества, его социальных, экономических и правовых последствий, а также его роли в системе транснациональной преступности в условиях стремительного развития цифровой экономики и информационно-коммуникационных технологий. Раскрываются отличительные черты кибермошенничества от традиционного мошенничества, освещаются его особенности, такие как анонимность, дистанционность, трансграничность, высокая латентность, масштабируемость и опора на цифровые следы.*
Ключевые слова: *кибермошенничество, киберпреступность, цифровая преступность, социальная инженерия, фишинг, spear-phishing, smishing, vishing, Business Email Compromise, кардинг, криптомошенничество, искусственный интеллект, deepfake, мошенничество с QR-кодами, цифровая криминалистика, кибербезопасность, финансовое мошенничество, транснациональная преступность, цифровая гигиена, киберпрофилактика.*

Abstract. *The article provides a comprehensive analysis of the modern criminological characteristics of cyber fraud, its social, economic, and legal consequences, as well as its role in the transnational criminal system amidst the rapid development of the digital economy and information and communication technologies. It highlights the differences between cyber fraud and traditional fraud, its features based on anonymity, remoteness, cross-border nature, high latency, scale, and digital traces.*
Keywords: *cyber fraud, cybercrime, digital crime, social engineering, phishing, spear-phishing, smishing, vishing, Business Email Compromise, carding, crypto fraud, artificial intelligence, deepfake, QR code fraud, digital forensics, cybersecurity, financial fraud, transnational crime, digital hygiene, cyber prevention.*

XXI asrning ikkinchi choragida insoniyat raqamli sivilizatsiyaning sifat jihatidan yangi bosqichiga kirib bormoqda. Sun’iy intellekt, bulutli hisoblash texnologiyalari, raqamli bank xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari, elektron tijorat, masofaviy xizmat ko‘rsatish, elektron hukumat va kripto-aktivlar bilan bog‘liq infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning shakli, mazmuni hamda tezligini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlik, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, xizmatlarni ommalashtirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, yangi kriminogen muhitni

ham shakllantirmoqda. Ayniqsa, mulkiy manfaatga ega bo‘lish maqsadida axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va raqamli moliyaviy vositalardan foydalanishga asoslangan kiberfiribgarlik zamonaviy jinoyatchilikning eng dinamik shakllaridan biriga aylanmoqda.

Kiberfiribgarlikni, kriminologik nuqtayi nazardan, an’anaviy firibgarlikning raqamli muhitga transformatsiyalangan shakli sifatida baholash mumkin. Biroq uni faqat “onlayn firibgarlik” sifatida talqin qilish ushbu hodisaning murakkab tabiatini to‘liq ifodalamaydi.

Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari Prezident tomonidan belgilanadi. Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar, federal konstitutsiyaviy qonunlar, 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to‘g‘risida” qonun va boshqalar, Prezidentning normativ-huquqiy hujjatlari, Rossiya Federatsiyasi hukumati, federal ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek Rossiya Federatsiyasi subyektlarining normativ-huquqiy hujjatlari va jinoyatchilik sohasidagi masalalarni tartibga soluvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi [10].

“Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq huquqbuzarliklarning oldini olishning maqsadi shaxs, jamiyat va davlatni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishdir. Mazkur qonunga asosan profilaktik tadbirlarning turlari (umumiy va yakka tartibdagi):

1) huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa sabablarni va shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, yo‘q qilish (minimallashtirish, zararsizlantirish)ga qaratilgan huquqbuzarliklarning umumiy oldini olish yoki federal, mintaqaviy, mahalliy va idoraviy darajalar, shuningdek fuqarolarning huquqiy ongi darajasini oshirish;

2) shaxslarning xatti-harakatlarini ijobiy tuzatish, kriminogen faktlarni yo‘q qilish yoki zararsizlantirish maqsadida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining subyektlari tomonidan shaxsning jinoyatgacha bo‘lgan xatti-harakatlari faktlari asosida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarning individual profilaktikasi.

Qonunga ko‘ra profilaktik ta’sir ko‘rsatish shakllari quyidagilar:

– huquqiy ma’rifat va huquqiy axborot berish – fuqarolarga qonunlar, huquq va majburiyatlar haqida ma’lumot berish;

– profilaktik suhbat – shaxs bilan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan shaxsiy muloqot;

– rasmiy ogohlantirish – huquqbuzarlik yoki jamiyatga zid xatti-harakatlarni davom ettirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida e’lon;

– profilaktik hisobga olish – huquqbuzarlikka moyil shaxslarni ro‘yxatga olish va kuzatib borish;

– taqdimnoma kiritish – huquqbuzarlikka olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar;

– profilaktik nazorat – shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatib, huquqbuzarliklar sodir bo‘lishining oldini olish;

– ijtimoiy moslashuv – shaxslarni jamiyatga qo‘shib, ijtimoiy muhitga moslashtirish;

– qayta ijtimoiylashuv (resotsializatsiya) – huquqbuzarlikka moyil shaxslarning ijtimoiy faoliyatini tiklash;

– ijtimoiy reabilitatsiya – huquqbuzarlikdan jabr ko‘rgan shaxslarning jamiyatdagi faoliyatini tiklash va qo‘llab-quvvatlash;

– yordam ko‘rsatish – huquqbuzarlikdan jabr ko‘rgan yoki shunday xavf ostida bo‘lgan shaxslarga yordam berish [11].

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda profilaktika tizimi subyektlari tomonidan qo‘llaniladigan huquqbuzarliklarning individual profilaktikasining boshqa choralari ham kiradi.

Belarus Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olish 2014-yil 4-yanvarda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi [11].

Mazkur qonunning 6-moddasiga asosan huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari: ichki ishlar organlari; prokuratura organlari; davlat xavfsizlik organlari; chegara xizmati organlari; bojxona organlari; davlat muhofazasi organi; Davlat nazorat qo‘mitasi; favqulodda vaziyatlar bo‘yicha organlari va bo‘limlari; Qurolli Kuchlar, Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari, boshqa davlat harbiy tuzilmalari va harbiylashtirilgan tashkilotlar; mahalliy ijro etuvchi va ma’muriy organlar; Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyat ijroiya qo‘mitalarining tarkibiy bo‘linmalari; Ta’lim vazirligi; Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari; Adliya vazirligi, viloyat ijroiya qo‘mitalarining tarkibiy bo‘linmalari, Minsk shahar Ijroiya qo‘mitasi, odil sudlov sohasida davlat va hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradi; Prezident huzuridagi Hayvonot dunyosi va florani muhofaza qilish davlat inspeksiyasi; davlat ommaviy axborot vositalari tahririyatlari vazifalari yuklatilgan yuridik shaxslar; huquqni muhofaza qilish jamoat punktlari kengashlari; ixtiyoriy otryadlar; jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar.

Huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish Belarus Respublikasi Bosh prokurori hamda hududiy va transport prokuraturalarining bo‘ysunuvchi prokurorlari tomonidan, shu jumladan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar tomonidan olib boriladi [12].

Germaniyada huquqbuzarliklarning oldini olish *birlamchi, ikkilamchi* va *uchinchi* darajali profilaktikaga ajratiladi [13]. Birlamchi omil huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiylik adolat tuyg‘usini shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkilamchi omil politsiya tomonidan amalga oshiriladi va huquqbuzarliklardan saqlanishning qonuniy vositalari bilan bog‘liq. Uchinchi darajali profilaktika – bu huquqbuzarlarni jazolash va qayta ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida qo‘llaniladigan profilaktika choralar va vositalar yig‘indisidan iborat.

Germaniya politsiya amaliyotida huquqbuzarliklar ko‘pincha himoyasiz jabrlanuvchi yoki obyekt bilan uchrashganda sodir etiladi degan qarash keng targ‘ib qilinadi. Shuning uchun profilaktika choralari huquqbuzarga yoki xavfsizlik tizimiga yoki potensial jabrlanuvchiga (individual, umumiy va jabrlanuvchining profilaktikasi) qaratilgan bo‘lishi kerak. Ushbu uchlikda himoya profilaktikasi va uning o‘zini o‘zi himoya qilishga qaratilgan aholi bilan maqsadli ishlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xuddi shu maqsadda hozirgi kunda ham huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha maslahatlarni bepul tarqatish, radioeshittirishlar va televizion dasturlarda namoyish etish amaliyoti keng tarqalgan.

Xususan, politsiya tomonidan “Politsiya maslahat beradi” nomli huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha maxsus dastur mavjud bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi politsiya xodimining jamoatchilik bilan keng aloqasini ta’minlash hisoblanadi [14].

Buyuk Britaniyada huquqbuzarliklarning oldini olish uchun minimal standartlar ishlab chiqilgan bo‘lib, aholining politsiya bilan hamkorligini oshirish uchun keng ko‘lamli maxsus chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, fuqarolarning patrul xizmatida hamda huquqbuzarliklar sodir etilgan joylarda maxsus navbatchilik qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Hatto, politsiya ishida ishtirok etish fikrini bildirgan faol aholi vakillari uchun politsiya transport vositalarida harakatlanish, politsiya kiyimlarida bo‘lish (nishonlar va xizmat lavozimlarisiz), radioaloqa vositalaridan foydalanish, tayoqchalar, kishan va hatto qurollarni olib yurish huquqlariga ega bo‘lish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur huquqlarning berilishi ortida politsiya ishida ishtirok etuvchi fuqarolar tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olishda xavfsizligini ta’minlash bilan bir qatorda, ularni maxsus organlar zimmasidagi mas’uliyat hissini uyg‘otishga xizmat qiladi deb baholanib, hukumat tomonidan bunday chora-tadbirlarning barchasi jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda [15].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish choralarining uchta modeli mavjud: *davlat muassasasi modeli, individual xavfsizlik modeli va atrof muhitga ta’sir qilish modeli*.

Masalan, ba’zi shtatlarda fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlarida ishtirok etishi orqali o‘g‘rilik jinoyatlarining sodir etilishi 30 foizga kamayishiga erishilgan [16]. AQSH politsiya departamentlari faoliyatini tekshirgan ko‘plab komissiyalar ushbu tuzilmalar aholidan ajratilgan va mamlakatda huquqbuzarliklar holatining rivojlanishini nazorat qila olmaydilar, degan xulosaga kelishdi. Yangi strategiya jamoatchilik politsiyasi deb ataladi. Unga ko‘ra, politsiyaning asosiy

TADQIQOTCHI MINBARI
O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

vazifasi huquqbuzarliklar profilaktikasida faol bo‘lish, hodisalar haqidagi xabarlarga javob bermaslikdir. Asosiy urg‘u aholi yashaydigan joylarda politsiyachilar mavjudligini namoyish etishga qaratilgan.

AQSHda jinoyatchilikning oldini olishda politsiya va jamoat hamkorligi zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

“Community Policing” dasturi – politsiyaning mahalliy aholi bilan yaqin hamkorligi, bu huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik ishtirokini oshiradi.

Smart texnologiyalar – yuqori aniqlikdagi videokameralar, sun’iy intellekt yordamida jinoyatni bashorat qilish tizimlari, politsiya patrul mashinalarida real vaqtda ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyati [17].

Xorijiy mamlakatlar tajribasida huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirish faoliyatida huquq-tartibot idoralarini emas, balki huquqbuzarliklarning bartaraf etilishidan ko‘proq manfaatdor bo‘lgan ijtimoiy muhit va aholining ahamiyati muhim ekanligiga e’tibor qaratiladi. Politsiyaning asosiy maqsadi aholini jinoyatchilikdan ogohlantirishga qaratilgan. Buni Amerika ko‘chalarda patrul politsiyasining muntazamligi, fuqarolar orasida jamoat joylarda huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida faol tushuntirish ishlarining olib borilishi, huquqbuzarlar va jinoyatchilarning ma’lumot olish vositalari to‘g‘risida aholi bilan birga harakat olib borishlarida kuzatish mumkin.

AQSH politsiya organlarining yetarli moliyalashtirilishi ularni aholini huquqni himoya qilish ishlariga jalb qilishlariga imkon beradi. Politsiya organlari bilan jinoyatchilarni qidirishga faol qatnashgan fuqarolar va ko‘ngilli jamoatchilik klublari a’zolariga pul mukofotlari, faxriy yorliqlar, sovg‘alar, esdalik nishonlarining berilishi va boshqalar shular jumlasidandir.

Barcha o‘quv muassasalarida – boshlang‘ich maktabdan oliy o‘quv yurtlarigacha – amaliy viktimologiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Xohlovchilar faqatgina ma’ruza tinglamasdan, maxsus treninglarda qatnashib o‘zini o‘z himoya qilish, ekstremal vaziyatlarda o‘zini tutish malakalarini o‘zlashtirishlari mumkin [18].

Amerika olimlarining viktimologiya bo‘yicha ishlanmalari fuqarolarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ular fuqarolarga turli vaziyatlarda o‘zini tutish to‘g‘risida qulay tavsiyalar beradi. Xususan, “Siz birinchi marta begona shahardasiz”, “Kechki sayr” metodlari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, politsiya odamlarga yaqinroq bo‘lish uchun avtoulovlardan foydalanishni deyarli tark etdi. Xuddi shu maqsadda ular velosipedlardan yoki piyoda patruldan foydalanishni boshladilar. Bu esa, o‘z navbatida, davlat tomonidan mazkur sohaga katta xarajat ajratmasdan sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Fikrimizcha, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda, O‘zbekistonda ham huquqbuzarliklarning oldini olishga **xususiy sektor**ni jalb etish va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi **izquvarlar** faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali huquqbuzarlik va jinoyatchilikning sezilarli darajada kamayishiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi tajribasi ushbu faoliyatni samarali tashkil etishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki jamiyat, fuqarolik institutlari va aholining faol ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, huquqbuzarliklarning oldini olishga kompleks yondashuvni qo‘llash, ya’ni huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy, axborot va psixologik choralarni uyg‘unlashtirish orqali jinoyatchilik darajasini sezilarli kamaytirishga erishish mumkin.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Germaniya, Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida huquqbuzarliklar profilaktikasining o‘ziga xos modellari shakllanganligi aniqlandi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida profilaktika faoliyati markazlashgan davlat boshqaruvi asosida tashkil etilgan bo‘lsa, Germaniyada birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali profilaktika tizimi samarali qo‘llaniladi. Buyuk Britaniya hamda AQSHda esa jamoatchilik bilan hamkorlikka asoslangan “Community policing” modeli va zamonaviy texnologiyalar yordamida profilaktika faoliyatini amalga oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy davlatlar qonunchiligida huquqbuzarliklarning oldini olishning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlatni g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishdan iboratdir. Shu bilan birga, ushbu davlatlarda huquqiy ma’rifatni oshirish, aholining huquqiy ongini shakllantirish, profilaktik hisob, profilaktik nazorat, ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiya kabi choratadbirlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada o‘rganilgan xorijiy tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasida ham jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, profilaktik faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, sun’iy intellekt va videokuzatuv tizimlaridan foydalanish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda xususiy sektor va nodavlat tashkilotlarning ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, “huquqbuzarlik” tushunchasini qonunchilikda “g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik” sifatida ifodalash nazariy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi. Chunki “qilmish” tushunchasi ayrim hollarda faqat faol harakatni anglatishi mumkin bo‘lib, harakatsizlikni qamrab olishda munozarali holatlarni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlari tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2019. – 294 b.
2. Васильев В.Д. Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: По материалам США и некоторых стран Зап. Европы: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – М., 2005.
3. Федеральный Закон Российской Федерации от 23 июня 2016 года №182-ФЗ «Об основах системы профилактики правонарушений в Российской Федерации» http://mvd.ru/document.
4. Криминология / Под ред. проф. Н. Ф. Кузнецевой, проф. В. В. Лунеева. – М., 2004. – С. 204.
5. Указ Президента Российской Федерации от 18.07.1996 г. № 1039 «Об утверждении Положения о Министерстве внутренних дел Российской Федерации». http://kremlin.ru/ acts/ bank/9733. (мурожаат вақти: 17.07.2026 й).
6. Федеральный закон Российской Федерации от 07.02.2011 г. N 3-ФЗ «О полиции» (редакция от 13.07.2015) / http://sudact.ru/law. (мурожаат вақти: 17.07.2026 й.
7. Работа полиции в обществе: Пособие для преподавателей / Ин-т. «Открытое общества». – М. 2021. – С. 12.
8. Закон Республики Беларусь от 4 января 2014 г №122-З «Об основах деятельности по профилактике правонарушений» // www.pravo.by.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A. Madvaliyev tahriri ostida. Beshinchi jild. – T., 2018. – 291-b.
10. Федеральный закон от 23 июня 2016 г. N 182-ФЗ “Об основах системы профилактики правонарушений в Российской Федерации”. Электрон манбаа: https://ivo.garant.ru/#/document/71428030/paragraph/1:0.
11. Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyunda qabul qilgan “Rossiya Federatsiyasida jinoyatchilikning oldini olish tizimining asoslari to‘g‘risida”gi qonuni. http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=64951.
12. Belarus Respublikasining 2014-yil 4-yanvardagi “Huquqbuzarliklari profilaktikasi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni. https://pravo.by/upload/docs/op/H11400122.
13. Криминология: Учебник для вузов / под ред. В. Д. Малькова. Москва. Юстицинформ. 2006 г.
14. Криминология: Учебник для академического бакалавриата / В.И. Авдийский [и др.]; под редакцией В.И. Авдийского. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – С. 301.
15. Криминология: Учебник для вузов / под ред. В.Д. Малькова. Москва. Юстицинформ. 2006 г. С 232.
16. Криминология: Учебник для вузов / под ред. В.Д. Малькова. Москва. Юстицинформ. 2006 г. С 125.
17. Майоров А.В. Международный опыт защиты жертв преступлений (Научная статья) // Материалы 66-научной конференции Южно-Уральского государственного университета (апрель 2014 года): веб-сайт – http://www.susu.ac.ru.
18. Babaxanov H.Q. Huquqbuzarliklarning oldini olishda xorijiy tajribaning ahamiyati va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar. https://zenodo.org/records/14938657.

OILAVIY (MAISHIY) ZO‘RAVONLIKNING KRIMINOLOGIK-VIKTIMOLOGIK MOHIYATI VA JABRLANUVCHILARNI TASNIFLASHNING PROFILAKTIK AHAMIYATI



AXMEDOVA
Muxabbat Abdujalalovna
Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning huquqiy, kriminologik va viktimologik xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Uning bir martalik nizodan farqli ravishda hukmronlik, majburlovchi nazorat va takroriy ta’sirga asoslangan xulq-atvor tizimi ekani asoslangan. Jabrlangan shaxslarni nafaqat jinsi yoki zo‘ravonlik shakli bo‘yicha, balki oilaviy maqomi, qaramlik darajasi, takroriy viktimlashuv xavfi, himoya resurslari va yordamga murojaat qilish modeli bo‘yicha ham, ya’ni ko‘p mezonli tasniflash taklif etilgan. Milliy qonunchilik va Oliy sud Plenumining amaldagi tushuntirishlari tahlil qilinib, oilaviy zo‘ravonlikni faqat alohida epizod yoki qonuniy kuchga kirgan sud hujjati orqali tasdiqlashga asoslangan yondashuvning profilaktik cheklovlari ko‘rsatilgan. Klassik viktimologiyadagi “jabrlanuvchining aybi” kategoriyasini qo‘llashning metodologik xavflari ochib berilgan. Muallif tomonidan viktimlik, viktimizatsiya, reviktimizatsiya va viktimologik profilaktikaga o‘zaro bog‘liq ta’riflar berilgan hamda standartlashtirilgan dinamik xavf bahosi, individual xavfsizlik va tiklanish rejasi, differensial himoya va idoralararo keys-menejment bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *oilaviy zo‘ravonlik, maishiy zo‘ravonlik, viktimologiya, jabrlanuvchi, viktimlik, viktimlashuv, qayta viktimlashuv, latentlik, majburlovchi nazorat, himoya orderi, xavfni baholash, viktimologik profilaktika.*

Аннотация. *В статье комплексно исследованы правовые, криминологические и виктимологические особенности семейного (бытового) насилия. Обосновано, что оно представляет собой не единичный конфликт, а систему поведения, основанную на доминировании, принудительном контроле и повторяющемся воздействии. Проанализированы законодательство Узбекистана и действующие разъяснения Пленума Верховного суда; выявлены профилактические ограничения подхода, при котором насилие подтверждается преимущественно вступившим в силу судебным актом. Предложена многокритериальная классификация потерпевших с учетом семейно-ролевого статуса, зависимости, риска повторной виктимизации, ресурсов защиты и модели обращения за помощью. Сформулированы авторские определения виктимности, виктимизации, ревиктимизации и виктимологической профилактики, а также предложения по внедрению стандартизированной динамической оценки риска, индивидуального плана безопасности и восстановления, дифференцированной защиты и меж-ведомственного кейс-менеджмента.*
Ключевые слова: *семейное насилие, бытовое насилие, виктимология, потерпевший, виктимность, виктимизация, ревиктимизация, латентность, принудительный контроль, защитный ордер, оценка риска, виктимологическая профилактика.*

Abstract. *The article provides an integrated legal, criminological and victimological analysis of domestic violence. It examines Uzbek legislation and current Supreme Court guidance and identifies the preventive limitations of an approach that relies primarily on a final judicial decision to establish domestic violence. Domestic violence is conceptualized not as an isolated conflict but as a pattern of domination, coercive control and repeated harmful conduct. A multi-criteria classification of victims is proposed, covering family role, dependency, repeat-victimization risk, protective resources and help-seeking patterns. Interrelated definitions of vulnerability to victimization, victimization, revictimization and victimological prevention are formulated. The article proposes standardized dynamic risk assessment, an individual safety and recovery plan, differentiated protection and inter-agency case management.*
Keywords: *domestic violence, victimology, victim, victimization, repeat victimization, latency, coercive control, protection order, risk assessment, victimological prevention.*

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik insonning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi, shaxsiy daxlsizligi, sha’ni va qadr-qimmatiga daxl qiluvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech kim zo‘ravonlikka yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor etilishi mumkin emasligi, shuningdek oila jamiyat va davlat muhofazasida ekani muhrlab qo‘yilgan [1]. Binobarin, oila doirasidagi zo‘ravonlikni “xususiy kelishmovchilik” sifatida qabul qilish inson huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy talablar va davlat majburiyatlariga to‘g‘ri kelmaydi.

Muammoning dolzarbligi uning keng tarqalgani bilangina emas, balki latentligi, takroriyligi va oqibatlarining kompleks xususiyati bilan belgilanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2026-yil 18-iyunda yangilangan ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda ayollar va qizlarning 31,6 foizi, ya’ni taxminan 840 millioni hayoti davomida intim sherigi tomonidan jismoniy va (yoki) jinsiy zo‘ravonlikka yoxud boshqa shaxs tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan [2]. Ushbu raqamlar barcha oila a’zolarining viktimlashuvini to‘liq qamrab olmasa-da, yaqin munosabatlar doirasidagi zo‘ravonlik jamoat salomatligi, inson huquqlari va jinoyatchilik profilaktikasiga daxldor global muammo ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda 2019-yildan boshlab mazkur mavzuga oid maxsus huquqiy mexanizmlar izchil shakllantirildi. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda zo‘ravonlik shakllari, himoya orderi va vakolatli subyektlarning vazifalari belgilandi [3]. 2023-yilgi islohotlar natijasida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik joriy etildi, himoya orderini sud tartibida uzaytirish imkoniyati kengaytirildi [4]. 2024-yilda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunning qabul qilinishi esa ularning mustaqil himoya ehtiyojlarini huquqiy jihatdan e’tirof etdi [5].

Shu bilan birga, huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilish va aybdorga ta’sir chorasi qo‘llashning o‘zi takroriy viktimlashuvni bartaraf etmaydi. Jabrlangan shaxs xavfli muhitda qolishi, huquqbuzarga moddiy yoki ruhiy qaram bo‘lishi, himoya resurslaridan foydalana olmasligi mumkin. Demak, profilaktika markaziga faqat huquqbuzar emas, balki jabrlangan shaxsning real xavfsizligi, ehtiyojlari va qayta viktimlashuv xavfi ham qo‘yilishi lozim.

Oilaviy zo‘ravonlik latent hodisa bo‘lgani sababli rasmiy hisobga olingan holatlar uning haqiqiy ko‘lamini to‘liq aks ettirmaydi. Shuning uchun maqolada statistik umumlashtirishdan ko‘ra, huquqiy va viktimologik mexanizmlarning sifat tahliliga ustuvor ahamiyat berildi.

Oilaviy zo‘ravonlikni jabrlanuvchi nuqtayi nazaridan o‘rganish umumiy viktimologiyaning shakllanishi bilan bog‘liq. G. fon Gentig jinoyatchi va jabrlanuvchi munosabatini harakatchan tizim sifatida tadqiq etgan, B. Mendelson esa jabrlanuvchi haqidagi mustaqil ta’limotning rivojiga asos solgan. D.V. Rivman ishlarida viktimlik, viktimologik vaziyat va profilaktika tushunchalari tizimlashtirilgan [6]. Mazkur klassik yondashuvlar jabrlanuvchi shaxsi va vaziyatni ilmiy tahlil qilish imkonini bersa-da, ulardagi “jabrlanuvchining aybi”ga urg‘u zamonaviy inson huquqlari standartlari asosida qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Zamonaviy adabiyotlarda oilaviy zo‘ravonlik alohida epizodlar emas, balki nazorat va qaramlikni ta’minlovchi davomiy xulq-atvor sifatida tadqiq etiladi. E. Stark ishlab chiqqan majburlovchi nazorat konsepsiyasi jismoniy ta’sirdan tashqari izolyatsiya, iqtisodiy cheklov va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yo‘qotishni yagona tizimda tushuntiradi [7]. A. Mayxill va K. Holning empirik tadqiqoti majburlovchi nazoratni xavfni aniqlash va baholashda turli epizodlarni bog‘lovchi markaziy belgi sifatida ko‘rsatadi [8].

Bolalar viktimologiyasida D. Finkelxor, R. Ormrod va H. Tyorner tomonidan ishlab chiqilgan poliviktimlashuv konsepsiyasi muhim hisoblanadi. U alohida zo‘ravonlik turini hisoblashdan ko‘ra, bola duch kelgan turli salbiy ta’sirlarning umumiy yig‘indisini baholash zarurligini asoslaydi [9]. K. Krenshouning interseksionallik nazariyasi esa jins, yosh, nogironlik, iqtisodiy holat yoki migratsiya maqomi kabi omillar kesishganda zaiflik kuchayishi mumkinligini tushuntirishga xizmat qiladi [10].

So‘nggi tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar zo‘ravonlikni masofa va vaqt bilan cheklanmaydigan nazorat vositasiga aylantirishi

ko‘rsatilmoqda. B. Xarris va D. Vudlok raqamli majburlovchi nazoratni oflayn zo‘ravonlikdan uzilgan mustaqil hodisa emas, balki uni davom ettiruvchi va kuchaytiruvchi usul sifatida asoslaydi [11]. R. Veyrning 14 519 nafar jabrlanuvchiga oid politsiya ma’lumotlari asosidagi tadqiqoti munosabat turi, jismoniy ta’sir va majburlovchi xulq takroriy viktimlashuv xavfini turlicha belgilashini ko‘rsatadi [12].

Ushbu ishlar salmoqli nazariy va empirik asos yaratgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabat, himoya orderi, ijtimoiy xizmat, dinamik xavf bahosi va qayta viktimlashuv profilaktikasini yagona mexanizmda bog‘lash masalasi maxsus tadqiqotni talab qiladi. Maqolaning ilmiy yo‘nalishi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Oilaviy zo‘ravonlikning boshqa huquqbuzarliklardan asosiy farqi huquqbuzar va jabrlanuvchi o‘rtasida yaqin oilaviy, nikoh, sobiq nikoh, qarindoshlik yoki umumiy maishiy munosabat mavjudligidir. Bunday munosabatlar bir tomondan, o‘zaro ishonch va ruhiy bog‘liqlikni, ikkinchi tomondan esa qaramlik, nazorat va xavfli muhitdan chiqish imkoniyati cheklanishini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli huquqbuzarlikdan keyin ham taraflarning birga yashashi, umumiy farzandlari yoki mulkiy manfaatlari mavjudligi takroriy viktimlashuv xavfini saqlab qoladi.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikni, bizningcha, *oilaviy, nikoh, sobiq nikoh, qarindoshlik yoki umumiy maishiy munosabatlar sharoitida bir shaxsning boshqasi ustidan hukmronlik, nazorat yoxud majburlash o‘rnatishiga qaratilgan, jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy yoki boshqa zarar yetkazadigan, shuningdek bunday zararning real xavfini yuzaga keltiradigan ijtimoiy salbiy xulq-atvor tizimi* sifatida ta’riflash mumkin. Mazkur ta’rifda zo‘ravonlik nafaqat tugallangan oqibat yoki alohida jinoyat tarkibini, balki takroriylik, nazorat, tahdid va zarar xavfini ham qamrab oladi.

Zo‘ravonlikning kriminologik mohiyati uchta o‘zaro bog‘liq belgidan iborat. Birinchisi – *hukmronlik va majburlovchi nazorat.* Huquqbuzar jabrlanuvchining mulki, harakati, ijtimoiy aloqalari, ta’lim olishi, mehnat qilishi yoki mustaqil qaror qabul qilishi ustidan nazorat o‘rnatishga intiladi. Ikkinchisi – *davomiylik va takroriylik.* Ayrim holatlarda huquqiy bahoga sabab bo‘lgan epizod uzoq vaqt davom etgan tazyiqlar tizimining faqat ko‘rinadigan qismi bo‘ladi. Uchinchisi – *shakllarning o‘zaro qo‘shilishi.* Ruhiy bosim iqtisodiy cheklov bilan, iqtisodiy qaramlik esa jismoniy yoki boshqa zo‘ravonlik xavfi bilan birga namoyon bo‘lishi mumkin.

Milliy qonunchilik jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlikni farqlaydi [13]. Ushbu tasnif huquqiy kvalifikatsiya uchun zarur, biroq viktimologik profilaktikada har bir shaklni alohida emas, ularning o‘zaro ta’sirida o‘rganish lozim. Masalan, iqtisodiy nazorat jabrlanuvchining xavfli munosabatni tark etish imkoniyatini kamaytirsa, ruhiy bosim yordam so‘rash va o‘z huquqlarini anglashga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Latentlik ham mazkur hodisaning tarkibiy belgisi hisoblanadi. Jabrlanuvchi oilaning buzilishidan xavotirlanishi, huquqbuzardan qo‘rqishi, iqtisodiy ta’minotdan mahrum bo‘lish, bolalar taqdiri yoki jamoatchilik munosabatidan xavfsirashi mumkin. Ba’zan u sodir bo‘layotgan harakatlarni zo‘ravonlik deb qabul qilmasligi yoki vakolatli organga murojaat natija berishiga ishonmasligi ham mumkin. Bu omillar rasmiy ma’lumotlar bilan real holat o‘rtasidagi farqni yuzaga keltiradi.

Raqamli muhit latentlik va nazoratning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi. Doimiy elektron aloqa talab qilish, akkauntlar yoki geolokatsiya orqali kuzatish, raqamli mablag‘lardan foydalanishni cheklash, onlayn tahdid yoki obro‘sizlantirish kabi harakatlar ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlik bilan qo‘shilishi mumkin. Ularning o‘ziga xosligi – huquqbuzar jabrlanuvchi bilan bir joyda bo‘lmasa ham nazoratni davom ettira olishi. Shu sababli, raqamli xavfsizlikni himoya rejasining qo‘shimcha emas, majburiy bloki sifatida belgilash zarur.

Xalqaro standartlarda profilaktika, himoya, tergov, javobgarlik va zararni bartaraf etish bo‘yicha davlatlardan lozim darajadagi sa’y-harakatlar talab qilinadi [14]. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining *Opuz v. Turkey* ishi milliy sud uchun majburiy pretsedent bo‘lmasa-da, davlat organlari ma’lum va real xavfga nisbatan passiv qolmasligi kerakligini ko‘rsatuvchi muhim qiyosiy manbadir [15]. Bu yondashuv viktimologik xavfni erta aniqlash va himoya choralarini voqealar og‘irlashishidan oldin qo‘llash zaruratini asoslaydi.

2019-yilda qabul qilingan O‘RQ-561-son qonun xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning maxsus huquqiy asosini yaratdi. Qonunning kuchli jihati zo‘ravonlik shakllarini huquqiy ta’riflash, himoya orderi, maxsus markazlar va vakolatli subyektlar tizimini belgilashda namoyon bo‘ladi. 2023-yilda qabul qilingan O‘RQ-829-son qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 59²-modda, Jinoyat kodeksiga 126¹-modda kiritilishi oila doirasidagi qilmishlarning ijtimoiy xavfini mustaqil huquqiy baholash imkonini berdi.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, moddiy-huquqiy javobgarlik va viktimologik profilaktikaning vazifalari bir xil emas. Ma’muriy yoki jinoiy norma sodir bo‘lgan qilmishni kvalifikatsiya qiladi, xavf bahosi esa kelgusidagi takroriy zo‘ravonlik ehtimoli va jabrlanuvchining himoya ehtiyojlarini aniqlaydi. Shu sababli jinoyat tarkibi isbotlanmagan yoki ish yakuniy qarorga yetmagan holatda ham real xavf bo‘lishi mumkin. Himoya mexanizmini faqat protsessual natijaga bog‘lash profilaktik choralarni kechiktiradi.

Bu muammo nikohni bekor qilish ishlariga oid amaldagi sud tushuntirishlarida yaqqol ko‘rinadi. Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-son qaroriga 2025-yilda kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, sud jabrlangan shaxs talab qilsa, yarashish uchun muhlat tayinlamaydi. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik er yoki xotin tomonidan sodir etilgan bo‘lishi va jabrlanganlik ma’muriy yoki jinoyat ishi bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjati bilan tasdiqlanishi talab etiladi, himoya orderining o‘zi yetarli asos hisoblanmaydi [17].

Mazkur tushuntirish huquqiy aniqlikka xizmat qilsa-da, viktimologik nuqtayi nazardan uchta cheklovga ega. *Birinchidan,* oiladagi boshqa shaxsning zo‘ravonligi ham er-xotindan birining xavfsizligiga jiddiy ta’sir qilishi mumkin. *Ikkinchidan,* qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini kutish davrida xavf davom etishi ehtimoli mavjud. *Uchinchidan,* himoya orderi zo‘ravonlik to‘g‘risidagi yakuniy ayblov xulosasi bo‘lmasa ham, vakolatli organ tomonidan xavf belgilari aniqlanganini ko‘rsatadi.

Shu sababli nikohni bekor qilishda yarashish muddatini tayinlamaslik masalasini faqat oldingi sud hujjatiga emas, ***dalillar majmui va joriy xavfning sud tomonidan baholanishiga*** bog‘lash maqsadga muvofiq. Bunda himoya orderi, avvalgi murojaatlar, tibbiy yoki psixologik ma’lumotlar, raqamli xabarlar, guvohlarning ko‘rsatmalari va boshqa qonuniy dalillar birgalikda baholanishi mumkin. Bu taklif aybsizlik prezumpsiyasini buzmaydi, chunki gap shaxsni jinoyatda aybdor deb topish haqida emas, balki fuqarolik ishida majburiy yarashtirishning jabrlanuvchi xavfsizligiga ta’siri haqida bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni bolaga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasini, himoya subyektlari va maxsus choralarni belgiladi [18]. Endi xotin-qizlar va bolalarga oid ikki maxsus tizim o‘rtasida yagona xavf bahosi, o‘zaro axborot almashish va bir oila bo‘yicha muvofiqlashtirilgan reja zarur. Aks holda, ona va bolaning ehtiyojlari turli idoralarda bir-biridan ajratilgan holda baholanishi mumkin.

Oliy sud Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-son qarori oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarni boshqa tan jarohati yetkazish holatlaridan farqlash, ruhiy, iqtisodiy va boshqa shakllarni to‘g‘ri tushunish bo‘yicha muhim yo‘nalish beradi [19]. Biroq sud amaliyoti uchun epizodga emas, xulq-atvor namunasiga qarash, avvalgi murojaatlar va majburlovchi nazorat belgilarini dalillar tizimida baholash bo‘yicha qo‘shimcha metodik tushuntirishlar muhim.

Viktimologiya jabrlanuvchi shaxsi, uning viktimlashuv jarayoni, jinoiy vaziyatdagi o‘rni, himoya ehtiyojlari va qayta viktimlashuvning oldini olish mexanizmlarini o‘rganadi. Jinoyat qurbonlariga oid BMT deklaratsiyasida jabrlanuvchi maqomi jismoniy yoki ruhiy zarar, ruhiy azob, iqtisodiy yo‘qotish yoxud asosiy huquqlarning jiddiy buzilishi bilan bog‘lanadi [20]. Oilaviy zo‘ravonlikda esa ushbu umumiy belgilar yaqin munosabat, qaramlik va takroriy xavf bilan murakkablashadi.

Shundan kelib chiqib, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsning viktimologik tavsifi deganda uning zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi, himoyadan foydalanishi va qayta viktimlashuv xavfiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-demografik, oilaviy, iqtisodiy, psixologik, huquqiy va vaziyatga oid belgilarining o‘zaro bog‘liq tizimi tushuniladi.

Tushunchalarning ichki izchilligini ta’minlash uchun quyidagi mualliflik yondashuvlari taklif etiladi. ***Viktimlik*** – shaxsning aybi yoki o‘zgarmas xususiyati emas, balki individual, oilaviy va ijtimoiy omillar hamda himoya resurslari ta’sirida jabrlanish xavfini ifodalovchi dinamik ijtimoiy-viktimologik holat. ***Viktimizatsiya*** – viktimogen omillar va muayyan vaziyat ta’sirida shaxsning amalda zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsga aylanish jarayoni. ***Reviktimizatsiya*** – avval jabrlangan shaxsning aynan shu yoki boshqa huquqbuzar tomonidan keyingi davrda takroran zo‘ravonlikka duchor bo‘lish jarayoni. ***Viktimologik profilaktika*** esa viktimogen omillarni erta aniqlash, jabrlanish va reviktimizatsiya xavfini individual va dinamik baholash, xavfni boshqarish hamda shaxsning xavfsizligi, huquqlari va ijtimoiy tiklanishini ta’minlovchi kompleks choralar tizimidir.

Ushbu ta’riflar profilaktika obyektini aniqlashda juda muhim. Agar viktimlik o‘zgarmas «shaxsiy moyillik» sifatida talqin qilinsa, mas’uliyatni jabrlanuvchiga yuklash xavfi paydo bo‘ladi. Dinamik yondashuvda esa xavfni oshiruvchi va kamaytiruvchi omillar farqlanadi: huquqbuzarning harakatlari, munosabatni tugatish bosqichi, uy-joy va iqtisodiy qaramlik xavfni oshirishi; himoya orderining samarali nazorati, xavfsiz joy, mustaqil mablag‘ va professional yordam uni kamaytirishi mumkin.

Bu tavsif kamida quyidagi elementlarni qamrab olishi lozim:

Ijtimoiy-demografik belgilar – yosh, jins, ta’lim, bandlik, sog‘liq holati, nogironlik va boshqa obyektiv xususiyatlar.

Oilaviy maqomi – er yoki xotin, sobiq er yoki xotin, farzand, ota-ona, keksa qarindosh, vasiylik yoki qaramoqdagi shaxs.

Qaramlik xususiyati – iqtisodiy, uy-joy, parvarish, ruhiy, huquqiy yoki axborotga oid qaramlik.

Zo‘ravonlik tarixi – avvalgi epizodlar, tahdidlar, ta’qib, himoya orderi yoki boshqa murojaatlar mavjudligi.

Himoya resurslari – xavfsiz joy, mustaqil daromad, hujjatlar, ishonchli shaxslar, huquqiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyati.

Viktimologik vaziyatdagi xulq-atvor modeli – yordam so‘rash, sukut saqlash, xavfli muhitni tark etishga urinish, murojaatni qaytarib olish kabi harakatlar va ularga ta’sir etgan omillar.

Mazkur tasnifda “viktimlik” shaxsning zo‘ravonlik uchun aybdorligi emas, u muayyan vaziyatda viktimlashuv xavfini oshirishi mumkin bo‘lgan obyektiv va subyektiv omillar yig‘indisini anglatadi. Huquqiy va axloqiy javobgarlik har doim zo‘ravonlik sodir etgan shaxs zimmasida qoladi. Jabrlanuvchining harakatlarini o‘rganishdan maqsad uni ayblash emas, balki xavfni to‘g‘ri baholash va samarali himoya chorasini tanlashdir.

Klassik viktimologiyada jabrlanuvchining vaziyatdagi faolligi yoki “provokatsiyasi”ga asoslangan tasniflar uchraydi [21]. Biroq oilaviy zo‘ravonlik sharoitida bunday yondashuvni mexanik qo‘llash jabrlanuvchini ayblashga olib kelishi mumkin. Munosabatni tugatish istagi, organlarga murojaat qilish yoki tortishuvda qatnashish zo‘ravonlikni oqlamaydi. Shu sababli “aybdor jabrlanuvchi” atamasi o‘rniga neytral va profilaktikaga yo‘naltirilgan “viktimologik vaziyatdagi xulq-atvor modeli” kategoriyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jabrlanuvchilarni yagona belgi asosida tasniflash amaliyot uchun yetarli axborotni bermaydi. Masalan, bir xil zo‘ravonlik shakliga duch kelgan ikki shaxsning iqtisodiy qaramligi, farzandlari, xavfsiz turar joyi va avvalgi murojaatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tasnif ko‘p mezonli va dinamik bo‘lishi kerak.

Birinchidan, ***oilaviy maqomi bo‘yicha*** er yoki xotin, sobiq er yoki xotin, voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan farzand, ota-ona, keksa oila a’zosi, boshqa qarindosh va birgalikda yashovchi shaxslar farqlanadi. Bu mezon huquqbuzar bilan aloqani aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, ***zo‘ravonlik shakli bo‘yicha*** jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy zo‘ravonlikdan jabrlanganlar hamda bir vaqtning o‘zida bir necha shakl ta’siriga duch kelgan poliviktimlashgan shaxslar ajratiladi. Poliviktimlashuv konsepsiyasi, ayniqsa, bolalar xavfsizligini baholashda muhim: bola bevosita zo‘ravonlikdan jabrlanishi bilan birga, oiladagi doimiy tazyiq muhiti ta’siriga ham duchor bo‘lishi mumkin [22].

Uchinchidan, ***takroriylik bo‘yicha*** birlamchi, takroriy va ko‘p marotaba viktimlashgan shaxslar farqlanadi. Birinchi qayd etilgan murojaat har doim birinchi voqea degani emas. Shu bois xavfni baholashda faqat rasmiy materiallar emas, balki jabrlanuvchining shaxsi, avvalgi tahdidlar va norasmiy yordam so‘rash holatlari ham hisobga olinishi lozim.

To‘rtinchidan, ***xavf darajasi bo‘yicha*** umumiy, oshirilgan, yuqori va o‘ta yuqori xavf guruhlarini ajratish mumkin. Bu guruhlar doimiy emas: yangi tahdid, munosabatni tugatish, huquqbuzarning cheklovga rioya qilmasligi, turar joy yoki daromaddan mahrum bo‘lish xavfni oshirishi; xavfsiz joy, huquqiy himoya va ijtimoiy yordam esa uni kamaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ***qaramlik turi bo‘yicha*** iqtisodiy, ruhiy, uy-joy, parvarish, huquqiy va aralash qaramlikdagi shaxslar ajratiladi. Qaramlikka faqat shaxsiy xususiyat sifatida emas, huquqbuzar tomonidan yaratilgan yoki kuchaytirilgan nazorat mexanizmi sifatida ham qarash kerak.

Oltinchidan, ***yordamga murojaat qilish modeli bo‘yicha*** faol murojaat qilgan, vositachi orqali murojaat qilgan, murojaatdan voz kechgan, takroriy murojaat qilgan va hali rasmiy yordam so‘ramagan shaxslar farqlanishi mumkin. Murojaatni qaytarib olish xavf yo‘qolganini anglatmaydi, aksincha, qo‘rqitish yoki qaramlik kuchaygan bo‘lishi mumkin.

Yettinchidan, ***himoya resurslari bo‘yicha*** yetarli, cheklangan va o‘ta cheklangan himoya imkoniyatiga ega shaxslar ajratiladi. Bunda xavfsiz turar joy, mustaqil mablag‘, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, transport, telefon, ishonchli ijtimoiy aloqalar va professional yordamdan foydalanish imkoniyati baholanadi.

Alohida guruhlar o‘ziga xos himoya ehtiyojlariga ega. Ayollar uchun gender, iqtisodiy holat, nogironlik, migratsiya yoki boshqa omillar kesishuvini hisobga oluvchi interseksional yondashuv zarur [23]. Bolalarning obyektiv qaramligi va o‘z huquqlarini mustaqil himoya qilish imkoniyati cheklangan. Keksa shaxslarda jismoniy imkoniyat, parvarish va mol-mulkka oid qaramlik muhim. Nogironligi bo‘lgan shaxslarda axborot, harakatlanish va xizmatlardan foydalanishdagi to‘siqlar xavfni kuchaytirishi mumkin. Erkak jabrlanuvchilar esa ijtimoiy stereotiplar sabab xabar berishdan tiyilishi mumkin. Demak, xizmatlar umumiy standartga ega bo‘lishi bilan birga, har bir guruh uchun moslashuvchan bo‘lishi shart.

Tasniflashning maqsadi jabrlanuvchilarga “yorliq” qo‘yish emas, balki qaysi shaxsga qanday himoya chorasi, qaysi muddatda va qaysi subyekt tomonidan ko‘rsatilishi kerakligini aniqlashdir. Shu ma’noda viktimologik tasnif himoya orderi, ijtimoiy xizmat, tibbiy va psixologik yordam, vaqtincha joylashtirish, huquqiy vakillik va bolalar xavfsizligi choralarini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Himoya orderi profilaktik vosita sifatida faqat sodir bo‘lgan holatga munosabat bildirmasdan, kelgusidagi xavfni kamaytirishi lozim. Amaldagi qonunchilikda xavf bartaraf etilmagan taqdirda order muddatini sud tomonidan bir yilgacha uzaytirish imkoniyati nazarda tutilgan [24]. Biroq muddatning o‘zi yetarli emas, order bilan bir vaqtda xavf omillari, jabrlanuvchining ehtiyojlari va cheklovlarni nazorat qilish mexanizmi belgilanishi kerak.

Bizningcha, huquqni qo‘llash amaliyotiga *standartlashtirilgan va dinamik viktimologik xavfni baholash model*ini joriy etish maqsadga muvofiq. “Standartlashtirilgan” deganda barcha vakolatli subyektlar uchun yagona asosiy mezon, baholash shkalasi va hujjatlashtirish tartibining mavjudligi tushuniladi. “Dinamik” deganda esa baholash bir marta bilan cheklanmasdan, yangi ma’lumot yoki vaziyat o‘zgarganida qayta ko‘rib chiqilishi nazarda tutiladi.

Baholash modeli kamida quyidagi bloklarni qamrab olishi lozim:

· avvalgi zo‘ravonlik va tahdidlar;

· zo‘ravonlikning takroriyligi va og‘irlashish tendensiyasi;

· huquqbuzarning himoya orderi yoki boshqa cheklovlarga munosabati;

· jabrlanuvchi va huquqbuzarning birga yashashi yoki doimiy aloqasi;

· iqtisodiy, uy-joy, ruhiy va parvarishga oid qaramlik;

· bolalar, keksalar yoki alohida himoyaga muhtoj shaxslar mavjudligi;

· xavfsiz joy, hujjatlar, mablag‘ va ishonchli aloqalar kabi himoya resurslari;

· jabrlanuvchining xavf haqida subyektiv bahosi.

Mazkur mezonlar avtomatik tarzda huquqiy xulosa chiqarish uchun emas, mutaxassis qarorini asoslash va muhim belgilarning e’tibordan chetda qolmasligini ta’minlash uchun xizmat qilishi kerak. Xavfni baholash ma’lumotlari maxfiy saqlanishi, ulardan jabrlanuvchini ayblash yoki huquqlarini cheklash uchun foydalanmaslik kerak.

TADQIQOTCHI MINBARI

Yuqori va o‘ta yuqori xavf aniqlanganda *individual xavfsizlik va tiklanish rejasi* tuzilishi lozim. Rejada aniqlangan xavflar, shaxsning ehtiyojlari va roziligi, qisqa va o‘rta muddatli maqsadlar, himoya choralari, mas’ul subyektlar, bajarish muddatlari, natija indikatorlari va qayta ko‘rib chiqish sanasi belgilanadi. Xavfsiz joy, tibbiy-psixologik yordam, huquqiy vakillik, hujjatlarni tiklash, bolalar masalasi, aliment va mulkiy huquqlar, ta’lim yoki bandlik, raqamli xavfsizlik hamda ijtimoiy nafaqalar kompleks ko‘rib chiqilishi kerak.

Bunday rejaning bajarilishi idoralar o‘rtasida bo‘linib ketmasligi uchun yuqori xavfli holatlarda **keys-menejer** institutini joriy etish maqsadga muvofiq. Keys-menejer jabrlanuvchining o‘rniga qaror qabul qilmaydi, uning vazifasi xizmatlarni muvofiqlashtirish, kelishilgan choralarning bajarilishini kuzatish, xavf o‘zgarganda qayta baholashni tashkil etish va shaxsni axborot bilan ta’minlashdan iborat. Uning vakolati, maxfiylik majburiyati, ish yuklamasi va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi normativ hujjatda aniq belgilanishi zarur.

Xalqaro qiyosiy standartlar ham xavfni barcha tegishli organlar tomonidan muvofiqlashtirilgan holda baholashni talab qiladi. Istanbul konvensiyasining 51-moddasi vaziyatning jiddiyligi va takroriy zo‘ravonlik xavfini baholash, 52–53-moddalari esa shoshilinch cheklov va himoya orderlarini nazarda tutadi. O‘zbekiston mazkur Konvensiya ishtirokchisi bo‘lmasa-da, bu normalar xavfni boshqarishning qiyosiy modeli sifatida ilmiy ahamiyatga ega [25]. UNODC materiallarida politsiya, prokuratura va sud qarorlarida xavf tahlili, jabrlanuvchini xabardor qilish va muvofiqlashtirilgan himoyaning ahamiyati ta’kidlangan [26].

Differensial himoya modelida past xavf uchun axborot, maslahat va nazorat; o‘rta xavf uchun himoya orderi bilan birga ijtimoiy-huquqiy xizmatlar; yuqori xavf uchun shoshilinch xavfsiz joy, sud cheklovlari va keys-menejment; o‘ta yuqori xavf uchun esa idoralararo tezkor choralar va qisqa muddatlarda qayta baholash nazarda tutilishi mumkin. Bu darajalar avtomatik sanksiya emas, xizmatlar intensivligini belgilaydigan boshqaruv mezoni bo‘lishi kerak.

